



№5/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

O'ZBEKISTON MUSIQA MADANIYATI VA SAN'ATINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Bazarov Mirzohid Mirzabahromovich

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada dolzarb muammo, ya'ni O'zbekiston musiqasi va san'ati, o'zining boy tarixiy merosi, milliy va hududiy xususiyatlarini tahlil etishga bag'ishlangan va o'zbek musiqa madaniyatining tarixiy rivojlanish jarayoni, uning milliy musiqiy an'analari va zamonaviy rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar:

O'zbekiston musiqa madaniyati, Xalq musiqasi, Musiqa san'ati, janr, Musiqiy ijrochilik, Madaniyat va san'at, Musiqiy integratsiya, Musiqiy meros.

Аннотация.

В данной статье рассматривается музыка и искусство Узбекистана, его богатое историческое наследие, национальные и региональные особенности, а также актуальные вопросы, такие как историческое развитие узбекской музыкальной культуры, национальные музыкальные традиции и современные этапы развития.

Ключевые слова:

Музыкальная культура Узбекистана, Народная музыка, Музыкальное искусство, Жанр, Музыкальное исполнение, Культура и искусство, Музыкальная интеграция, Музыкальное наследие.

Abstract.

This article is devoted to the analysis of such pressing issues as the music and art of Uzbekistan, its rich historical heritage, national and territorial characteristics, and the historical development process of Uzbek musical culture, national musical traditions and modern stages of development are considered.

Keywords:

Musical culture of Uzbekistan, Folk music, Musical art, genre, Musical performance, Culture and art, Musical integration, Musical heritage.

Musiqa inson hayotiga ummon kabi kirib borishi va uning sirli dunyosi insonni behtiror hayotot olamiga yetaklaydi. Bu ummon - mo'ziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'alar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarori "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorga muvofiq musiqa sohasida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu maqolamda ham milliy cholg'ulardan dutor haqida aytib o'tmoqdaman.[1] Barcha davrlar o'zining zamoniga mos ravishda o'z tarihiga egadir. Musiqa qadim zamonlardan buyon ilohiy va psixologik ta'sirini insonlarga ko'rsatib keladi. Insoniyat esa o'z ma'naviyati darajasida o'zining ma'naviy boyliklarini shakllantirib, davrlar osha rivojlantirib kelgan. Bu jarayonda har soha zamonlar evrilishida charxlanib, mukammallashib, yangidan-yangi ijodiy munosabatlar negizida boyib, o'z samarasini namoyon etib kelgan.

Musiqiy talaffusning sofliqi registr qulayligiga ham bog'liq [2]. Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlami faqatgina ohanglarda muhrlangan etakror asarlardangina anglash mumkin. Buning esa ko'lami juda keng, ulami tasavvur ham qilish mushkul. Chunki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelingan. Buning

negizida ikki ulkan tafakkur yonalishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlarining mahsuli orin olgan.

Musiqqa madaniyati va uning an'analari va madaniyati azl azaldan Sharq xalqlarida rivojlanib takomillashib borayotganligini fan nuqatai nazaridan o'z tasdig'ini topgan. Vaqt o'z ta'siri ni o'tkazishiga qaramay boshqa madaniyatlar ya'ni G'arb madaniyatining takomillashib borayotganligini bugungi kundagu musiqqa madaniyati va rivojlangan davrlarlar ichida teng hizmat qilayotganidan tushunish mumkin. Shu nuqtai nazardan musiqani profession darajadagi bosqichlarga va shu bilan birgalikda garmoniyalash (tovushlarni bir biriga bog'lash) tovushlar uyg'unligini hosil qilish kabi me'zonlar, musiqqa tovushlarini milliy va zamonaviylikka olib kelganligini ta'kidlash o'rinlidir. Buning natijasi musiqaning barham topishi emas, aksinsa yuksaklikka intilayotganligini G'arb musiqqa san'atiga intilish, musiqqa madaniyatni va his tuyg'ularni ong ostiga ta'siri, ergashish kabi munosabatlarshakillana boshladi.

Barcha milla va elatlarning milliy musiqasi va madaniyati bo'lishi bilan birgalikda, ular asoslangan G'arb musiqqa ijodiyotini shakllantirdilar. Ushbu qadam bosqichma bosqich G'arb madaniy musiqasiga taqlid ekanligi ham shubhasiz. Biroq yillar har qanday davrning o'z kodi va milliy an'analarini o'zgartira olishi mumkinligi ya'ni harakaytlarni motivga qarab belgilab olish, g'oyalar, siyosiy jarayonlar, bundan tashqari musiqaning ham zamonaviy talqinga borib yetishi musiqaning boshqa turlarini ommalashishiga zamin yaratadi.

O'zbek millatini milliylikini va ayollarga hos iffatini ham tarannum eta oladi sababi, cholg'u asbobini ushlagan chog'idanoq milliy liboslar qizlarimizning boshlarida kokillik do'ppilari ko'z o'ngimizda gavdalanadi.[3] O'zbek xalq musiqasi madaniyati barcha jarayonlarda o'zigacha mukammal darajada rijovlangan takrorlanmas ohanglar va mumtoz musiqqa merosiga egadir. XX asrlarga birib, aholilarda ijtimoiy hayot va musiqqa san'atida yangi ohang va qo'shiqlar ommalashib borishida shart sharoitlar yaratila boshladi. Shuni aytib o'tishimiz kerakki musiqqa ijod yo'llarini rivijlanishi huddi shu g'arb musiqqa madaniyatining ta'siri osida paydo bo'ldi. Musiqqa har doim xalqning birdamligi va ommaviy halqlarning madaniyatini yuksaltirishga birdamlikka chorlashga xizmat qilgan. XX asrlarga borib yurtimizda zamonaviy musiqalarni kirib kelganligi va unung yoshlar ongiga ta'si sezila boshladi. Yevropa musiqalari musiqashunoslar ijodida qaror topib o'z tasirini ko'rsatmasdan qolmadi.

Mazkur ilmiy maqoladan ko'zlangan maqsad shuki, XX asr madaniy hayoti madaniy, o'zbek san'ati rivojiga qo'shgan hissasi asosida o'quvchilarda musiqiy did va nafosatni tarbiyalash muammolarining o'ziga xos xususiyatlarini organish.

XX asrda O'zbekiston musiqqa san'atining yuqori cho'qqilarga chiqishi bastakorlik an'analari va kompozitorlik ijodining bundan tashqari musiqqa ta'lim muasasalarining rivoj topishi va musiqqa faoliyatining rivoji, teatr studiyalarining tashkil etilishi, ularning ijodiy jamoalarining ijodlari, san'at arboblarning hayoti va ijodi bayon etilgan. Kompozitorlik ijodiyoti Yangi janr O'zbekistonda. Shu bois bu jarayonni davr musiqiy janrlarining shakllanishi kesimida, faoliyat davomidagi ijodiy hamkorlik va o'zbek kompozitorlik maktabining yuzaga kelishi hamda rivoji xususida alohida mavzular boyicha yoritib beriladi. Kompozitorlik ijodiyotining janrlar kesimi juda katta va ularni alohida idrokini ta'minlash lozim bo'ladi. Shuni nazarga olgan holda Davlat malaka talablarida belgilangan va fanning namunaviy dasturlarda korsatilgan mavzular bo'yicha, O'zbekistonda simfoniya, opera, balet, estrada, vokal va kamercholg'u janrlaridagi o'zbek kompozitorlarining yaratgan asarlari va rivojini asosiy yo'llanmalar kesimida yoritib berildi.

O'zbekiston musiqa darslari va san'ati uning xususiyatlari haqida bayon etiladi. Musiqa fanlarining maqsad va vazifalriga to'htaladigan bo'lsak, musiqa san'atining tarixiy taraqqiyot jarayoni, musiqiy hayoti, musiqashunoslar bolalar bastakorlari, kompazitorlar faoliyati, musiqaning turli janrlari va turlari haqidagi fikr va mulohazalar takliflar bayon etilgan.

Mazkur ilmiy maqolada "XX asrga kelib o'zbek musiqaning rivojlanishi" mavzusiga alohida e'tibor bilan yondashilgan. XX asr boshida yillarida O'zbekistonda madaniy holat va jarayonlarni bosqichma bosqich amalga oshirishni nazarda tutgan. Jadidchilar harakatining faoliyat jarayonlariga ularning ijodiy faoliyatini alohida e'tiborga olib o'tilgan. Shu bilan birga Yevropa talqinidagi teatr jamoalarining tashkil etilishi madaniyatga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Shakuriy kabi fan arboblarning yurimiz uchun qilgan hissalari beqiyos bo'lib bugungi kunda yuksak baholangan.

Kompazitorlik faoliyatining O'zbekistonga kirib kelishi jarayonlari o'zbek musiqa sahifalariga kirib kelgan kompazitorlik ijodiyoti boshlanish davrlarida, O'zbekistonda faoliyat olib borgan rus musiqa san'ati namoyandalari va kompazitorlarining ijodini alohida qayd etish joizdir. Asosan XX asrning 20 – 40 – yillarida faoliyat olib borgan mutaxassislar musiqa ijodiyotining yangi yo'nalishini amaliyotga olib kirdilar. Musiqiy folklori organdilar va uning asosida kompazitorlik janrlarida asarlar yaratish dunyosiga olib kirdilar. Mana shu jarayon yurtimizda badiiy havaskorlik jamoalarning tashkil topishi, maxsus musiqa o'quv maskanlarning ochilishi, professional teatrlarning bunyodga kelishi va o'zbek drama, opera va baletlarining yaratilishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston radiosi va O'zbekiston kompazitorlar uyushmasining tashkil topib, o'z faoliyatlarini boshladilar. Ayniqsa, bastakorlarning yangi avlodi: Hamza, Toxtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, Muxtoijon Murtazoyev, Muhammadjon Mirzayev, Fahriddin Sodiqov, Nabijon Hasanov kabi namoyandalari o'zlarining yangi uslubdagi yaratgan asarlari bilan bu soha rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.[4]

Musiqaning rivojlanishi 1940 yilga kelib keskin o'zgardi. Kompazitorning rivojlanishining mahsuli sifatida musiqa asarlarining paydo bo'lishi alohida davrni paydo bolishi edi. Rivojlanishdan avvalgi davrlarida asosan yevropa va o'zbek musiqalarning bir biri bilan yo'g'rib borishi misol bo'lsa, kegingi yillarga kelib ushbu esa ijodiy faoliyatni namoyon bo'lishiga dasturi amaldir. Sh.Ramazonov, D.Zokirov M.Ashrafiy, M.Nasimov, I.Hamrayev, S.Yudakov, M.Burhonov, M.Leviyev, Sh.Ramazonov, D.Zokirov, X.Izomolarning faoliyati namoyon bo'la boshladi.

Urush yillarini nafaqat fan va madaniyatni balki musiqa sohalarida ham qayta yangi davrning paydo bo'lishi bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Vaziyatlarni zamon sharoitlariga moslashish davri edi. Musiqa ijodining yuksak namoyondalari va iste'dodlari jamoalardan tuzilgan iqtodorlardan halfalar tuzilib, urush yillatida yurtning tinch va totuv bo'lishlari uchun jonbozlik ko'satganlar.

Musiqa namoyondalari va ijodkorlari uchun unutilmas davr bo'ldi. Musiqali drama va operalar o'zbek kompazitorlar va bastakorlari ijodida, Toshkent xoreografiya bilim yurti ochilishi 1941-yili, 1943-yillarga yurtning ko'rkiga ko'rk qo'shuvchi Muqimiy nomidagi Respublika davlat musiqali teatr, qurib bitkazilishini aytib o'tish joizdir. Ushbu davrlarda muhitning to'g'ri baholash orkestr turlarini ko'payishi, 1943-yil orkestr turlarini rivojlanishi uchun alohida davr boldi desak hato emas. Ashot Ivanovich Petrosyans urush yillarida musiqa

rivoji uchun hizmarlari beqiyos bo'ldi. Rivojlanish davrida ulkan yutuq sifatida Toshkent davlat teatr va rassomchilik instituti 1944-yili kelib tashkil topdi.

O'zbek musiqasida zamonaviy yo'nalishlaridan estrada bo'lib, pop, rok kabi san'at. Estrada milliy ijrochilik san'atida avvalgi davrlar 20-30-yillardan keng ommalashgan bo'lsada, zamonaviy oqimning shakllanishi 50-yillarga kelib rivojlandi. 80-90- yillarga kelib, estradaning rosmi g'arbona janrlari iste'molga kirib keldi va yoshlar orasida keng ommalashdi. Zamonaviy ommaviy janrlarga bo'lgan ushbu san'at turi tez ommalashuvchi xususiyati bilan doimo o'zining muammolarini yaratib kelgan. Bu janrga professional darajada yondashish ushbu janr yutug'ining garovidir. Shu bois darslikka jahon estrada janrining namunalari, o'zbek kompazitorlari ijodida estrada musiqasining purma'no namunalarini shakllanib ijro amaliyotida tutgan ahamiyati borasida fikrlar keltirildi.

Yurtimizda ijodiy sohalarga jumladan musiqa va keng qamrovli, ya'ni qadimgi zamon faktlarini o'qish va o'rganish (manbashunoslik), hayotga qiziqishi organologiya, folklorshunoslik, etnomusiqashunoslik, musiqiy sharqshunoslik, ijrochilik kabi bir nechta yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. 90-yillariga kelib musiqachilar va zamonaviy musiqashunoslar barakali ijod qildilar. Musiqa uchun samarali faoliyat olib borayotgan namoyondalar musiqaning tarixini o'rganishda yuklashishga erishdilar. O'z mehnatlarini sidqi dildan ado etgan oliy ta'lim muassasalari quyidagilar edi. Jumladan San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti va O'zbekiston davlat konservatoriyasi professor-o'qituvchilari ilmiy jamoasi faoliyat rivojiga ulkan hissa qo'shganlar.

Musiqani his qilish uchun uni tinglash foydali bo'ladi, lekin musiqani tushunish yetarlicha ahamiyat kasb etmaydi. Bundan fahmlash mumkinki musiqa bilan ham ohang bo'lgan insonning duyoqatashi va ruhiyati toza va ijodiy qarashi, hayotga qiziqishlari yuqori bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning san'atni rivojlantirishda 5 ta tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Va kuni kecha musiqa sohasiga qilingan e'tibor ya'ni "Har bir maktab bitiruvchilari 2022-2023 oquv yilga kelib 1 tadan milliy cholg'u asbobida kuy ijro etib berishi" har bir musiqa o'qituvchilariga ma'suliyat va yuklaydi.

Barcha halqlarning an'ana va tarixi bo'lgani kabi musiqa sohasi vakillarini ham o'z qadimiy ohang va janrlariga ega. o'zbek musiqasining ham o'z an'analari va milliy musiqalari bor. Milliy musiqa yo'nalishlari 2 yo'nalishda rivojlangan bo'lib,

1. folklor musiqasi (xalqning dardi va hayot tarzi haqida) musiqa turi.
- mehnati qo'shiqlari kundalik faoliyatimizdagi aks etuvchi jarayonlar musiqasi.

Folklor musiqalarining asosini mavsum va marosim qo'shiqlari tashkil etib, quyidagi yo'nalishlardan iborat.

Quyidagilar :

1. Bolalar musiqasi.
2. Marosim qo'shiqlari.
3. Mehnat qo'shiqlari.
4. Diniy, afsuniy qo'shiqlar.

Amaliyotda har bir yo'nalishga xos va voqe'lik bilan bog'liq bo'lgan janrlar vujudga kelganki, ular asrlar davomida xalqlar milliy an'analarda yuzaga kelgan. Bular - alla, yalla, lapar, terma, qoshiq, aytishuv kabi janrlardir. Xalq folklor musiqasining asosiy xususitlaridan biri: folklor musiqasini xalq yaratadi, xalq tomonidan ijro etiladi va tinglanadi. Lekin folklor

musiqasining ham bilimdon ijrochilari bo'lib, xalq orasida ular laparchi, yallachi kabi nomlar bilan atalib kelinadi. Folklor musiqasining ijrosida va ijodida muayyan janrlar tarkibiga asoslangan erkinlik xususiyatlari mavjuddir. Musiqiy namunalarning shakl jihatidan soddaligi, barmoq vazniga xos she'riy matnlarga asoslanishi va unchalik katta bolmagan diapazon doirasida ijro etilishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi yo'nalish Mumtoz milliy musiqa. Mumtoz musiqa namunalari, har tomonlama mukammallik kasb etishi bilan folklor musiqasidan farq qiladi. musiqa alohida yaratuvchisi, ya'ni bilimdon bastakori tomonidan ijod etiladi. Bilimli va mohir so'zanda yoki xonandalar tomonidan ijro etiladi. Asosan aruz vazniga xos bo'lgan so'z matnlariga asoslab va muayyan shaklda yaratiladi. O'zbek xalq Mumtoz musiqasi o'zining mukammalligi va murakkabligi bilan boshqa xalqlar orasida alohida oringa egadir.

Mumtoz musiqaning eng yirik shakli maqomlardir. Maqomlar O'zbekistonning Uch vohasida mavjud bo'lib, Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'ona vodiysida "Farg'ona-Toshkent maqom yollari" deb yuritiladi. Bundan tashqari, maqomlar yoilarida yaratilgan, shaklan va ijroviy xususiyatlari doirasi maqomlarga xos bo'lgan "Suvora" lar, Katta ashula, Sumay maqom yollari, dutor maqomlari hamda cholg'u yollari mavjuddir. Mumtoz musiqaning shaklan muqimligi, qonun- qoidalarga egaligi, talqin uslublarning mavjudligi uning murakkabligidan dalolat beradi.

Maqomlarni ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik, bilim va albatta keng diapazonli ovozga ega bolish lo'zimdir. Maqomlar, odatda bir necha yillar davomida hamda ustoz-shogird qabilidagi ta'lim asosida o'zlashtiriladi. Maqomlarni - "sifatsiz ijro etish - deb yo'zadi maqomdon olim I.Rajabov - maqom yo'llari haqida notog'ri tasavvur qoldirishi mumkin". Bu Mumtoz musiqa merosimizning asrlar osha o'z badiiy va estetik imkoniyatlari saqlab kelishining asosini bildiradi. Shu bilan birga qayd etish lozimki, "Maqom yollari ijrosi uchun hofizda keng diapozon, yoqimli ovoz va yuksak aytish texnikasi bo'lishi shart." [5]

Turli yo'lishlarni o'zida boyitayotgan o'zbek milliy musiqasi yillar davomida rivojlanib kelmoqda. XIX asrga ohiri XX asrga kelib, yevropa musiqalari o'zbek bastakorlik ijodida milliy an'analariga mos ravishda jahon musiqa namunalari va o'ziga xos va mos kompazitorlik ijodiyoti ham kirib kela boshladi. Bu hanrlarni ijro etish majburiyatlarini yangi ohanglarni kashf etishni insonlar ongiga ushbu ohanglarni singdirishni talab qilar edi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi (dastlabki nomi "O'zbekiston kompazitorlar soyuzi") O'zbekiston Xalq Komissarlari kengashining 1938 yil № 203-son qaroriga binoan tashkil topgan. Respublikada faoliyat korsatayotgan kompazitor va musiqashunoslarni g'oyaviy va ijodiy birlashtirish maqsadida O'zbekiston xalq artisti, atoqli kompazitor va dirijyor Tolibjon Sodiqovga uyushmani tuzish uchun rasman vakolat berildi. Respublika hukumatining xalq Komissarlari 1940 yil 21 fevral № 258 - qaroriga binoan O'zbekiston bastakorlar uyushmasi 1 syezdini 1941 yil oktyabr oyida otkazish belgilandi hamda a'zolari tasdiqlandi: Tolibjon Sodiqov—rais, Muxtor Ashrafiy rais orinbosari, Karim Abdullayev - mas'ul kotib, Toxtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Nikolay Mironov, Aleksey Ko'zlovskiy, Yelena Romanovskaya, Mutal Burhonov, Viktor Uspenskiy, Sharif Ramazonov, Imomjon Ikromov, Matyusup Xarratovlar hay'at azolari qilib saylandilar. K. Abdullayev o'z arizasiga kora mas'ul kotib vazifasidan etilgach, orniga musiqashunos Ye.Romanovskaya saylandi.

Sobiq ittifoq hukumati qaroriga asosan 1939 yili "Kompazitorlar uyushmasi" va "Musika fondi" ta'sis komiteti tashkil etilgan edi. Hay'at raisi vazifasiga atoqli kompazitor va musiqashunos, akademik Boris Vladimirovich Asafyev (adabiy taxallusi Igor Glebov (1884 -

1949) tayinlandi. Uyushmaning birinchi tashkiliy qurultoyini otkazish 1941 yil noyabr oyiga belgilandi. Mazkur tashkilot tarkibiga boshqa respublikalar uyushmalari qatori O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi ham kiritildi va "O'zbekiston musiqa fondi bo'limi" tashkil topdi. Sinsadze – direktor, Kolesnichenko bosh hisobchi etib tayinlandilar. 1941 yil 22 iyunida boshlangan Ikkinchi Jahon urushi mazkur ijodiy uyushma qurul-toylarini o'tkazishga imkoniyat bermadi. Urush yillari O'zbekistoi kompazitorlar uyushmasi va uning "Musiqa fondi" jangovar shtabga aylandi. Ayrim sanatkorlar qollariga qurol olib jang maydonlariga otlandilar, qolganlari esa adabiyot va sanatning rivojlanish jarayonida faol mehnat va ijod qildilar. Bastakor va kompazitorlar, shoir va dramaturglar bilan hamkorlikda musiqaning barcha shakl va janrlarida ijod qilib, yangi - yangi musiqiy va saxna asarlar yaratdilar. Bu jarayonda, yukorida tilga olingan hay'at a'zolari bilan birgalikda K. Jabborov, F. Sodiqov, S. Kalonov, N. Xasanov, P. Raximov, M. Niyo'zov, Nishonov, M. Salimov, O. Toshmatov (Orif garmon), K. Mansurov, M. Murtazayev, A. Allaberganov kabi bastakorlar, 1941 yilning iyun oyida Toshkent davlat konservatoriyasining ilk bitiruvchilari I. Akbarov, B. Giyenko, V. Meyen, I. Hamzin (urushda xalok bo'lgan) hamda konservatoriya pedagoglaridan G. Mushel, B. Nadejdin, Yan Pekker va yukori kurs kompazitor - talabalari urush mavzusiga bagishlangan asarlar yarata boshlashdi. Bu ijodiy jarayonga Moskva va Leningrad, shuningdek, Belorusiyadan vaqtincha kochib kelgan taniqli kompazitorlardan B. Arapov, S. Vasilenko, V. Voloshinov, L. Revuskiy, O. Chishko, Yu. Tyulin, M. Shteynberg, N. Boguslavskiy, G. Taranov va Leningrad konservatoriyasining professor, pedagog va talabalari ham qoshildilar.

1960 yilning 8-14 iyunida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining Sh - chi qurultoyi boldi. Uning konsert dasturida kompazitorlarning turli shakl va janrlarda yaratgan yangi musiqiy asarlari 7 ta konsertda namoyish qilindi, shuningdek, quyidagi spektakl va kinofilmlar delegat va mexmonlar e'tiboriga xavola etildi: S. Yudakovning "Maysaraning ishi" operasi, T. Jalilov va G. Sobitovlarning "Nurxon" musiqali dramasi, I. Akbarov musiqasi bilan "Ikkinchi gulshan" va M. Leviyev musiqasi bilan "Mahallada duv - duv gap" ("Syurpriz") badiiy kinofilmlari korsatildi. M. Burhonov "O'zbekiston musiqa san'atining rivojlanish jarayoni va san'atkorlarning vazifalari" mavzuida ma'ruza qildi. U respublikaning musiqiy hayotidagi yutuq va kamchiliklarga, hamda yechilmagan muammolariga toxtalib otdi. Shu bilan birga kompazitorlarning ijodiy faoliyatidagi jiddiy nuksonlar tankid ostiga olindi. Taftish hay'ati raisi I. N. Karelova o'z ma'ruzasida M. Burhonov so'zlarini tasdiqladi. Qurultoy kun tartibi haqida qaror qabul qildi va tashkiliy masalani korib chiqdi. O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining hay'at raisi lavo'zimiga Sobir Boboyev, uning orinbosari etib Raximov, mas'ul kotib A. A. Berlin, taftish hay'at raisi lavo'zimiga I. N. Karelovalar saylandilar.

1971 yilning 15 noyabr - 2 dekabr kunlari O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining VI syezdi boldi. Uning dasturida kompazitorlarning simfonik, vokal - simfonik, kamer cholg'u, kamer - vokal asarlari, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun kuy va qoshiqlar, qoshiq va romans, estrada, xor jamoalari va bolalar uchun yo'zilgan asarlar yangradi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining tashkil topganiga 50 yil tolishi munosabati bilan 1988 yilning 27 noyabridan 8 dekabrigacha yubiley Plenumi

bo'lib otdi. Plenum konsertlari va ijodiy uchrashuvlar haqiqiy musiqa bayramiga aylanib ketdi. Plenum ishini tugallash arafasida 24 - 26 ioyabr kunlari dunyodan ko'z yumgan kompazitorlar va musiqashunoslarga bag'ishlangan "Xotira kechalari" o'tkazildi va qabrlari ziyorat qilindi. Marhum kompazitorlarning musiqiy asarlari uchta konsert dasturida jarangladi. N. Zokirovning "Gamlet" S. Yudakovning "Maysaraning ishi" operalari, R. Abdullayevniig

“Quyoshga ta’zim” balet - oratoriyasi M. Ashrafiyning “Sevgi tumori” baleti, U. Musayevning “Tomaris” hamda Samarqand opera va balet teatrida D. Qodirovaning “Sayyora” baleti, M. Bafojevning “Prometey” musiqali dramasi, E. Solihovning “Xo’ja Nasriddin” operettasi tomoshabinlar e’tiboriga havola etildi.

Shuni aytib o’tish joizki, XX asrning 60 – 70 – 80 - yillarida O’zbekiston Bastakorlar uyushmasi tashabbusi bilan Toshkentda har yili O’rta Osiyo va Qozog’iston kompazitorlarining asarlaridan «Simfonik musiqa festivali» o’tkazildi. Mazkur festivalni o’tkazishda O’zbekiston xalq artisti, professor dirijyor Z.Haqqnazarov rahbarligidagi simfonik orkestrning faoliyati muhim rol o’ynadi.

Bugungi kunda o’zbek musiqa san’ati yangi bosqichga o’tgani, xalqaro musiqiy maydonlarda o’z o’rnini topishi va milliy musiqiy merosni zamonaviy ijrochilikda aks ettirishda katta ahamiyatga ega bo’lganini ko’rish mumkin. Shuningdek, musiqa ta’limi va san’at ta’limi sohasidagi islohotlar O’zbekiston musiqiy madaniyatining kelajakdagi rivojiga katta hissa qo’shmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekiston musiqa madaniyati va san’ati, uning tarixiy merosi va zamonaviy rivojlanishi bilan butun dunyo madaniyatiga muhim hissa qo’shadi. Musiqa san’ati va madaniyatining yanada rivojlanishi uchun an’anaviy va zamonaviy uslublar o’rtasidagi uyg’unlikni saqlab qolish, shuningdek, global madaniy aloqalar o’rtasida o’zbek musiqa san’atining o’ziga xosligini yanada yuksaltirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022 yildagi PQ-112son qarori “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qaror
2. Абдурахмонова, Д.О. Музыка ансамбллари ташкил этишнинг илмий-назарий ва методологик асослари // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10-2. – С. 511
3. D.O.Djalilova, O.X.G’apurova “Dutor ijrochiligining tarixi” International journal of integrated sciences International scientific practical journal 1-Issue 5-484 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17714518>
4. O’zbekiston musiqasi tarixi A.Jabborov, S.Begmatov, M. Azamova. T.2018. 5-6 bet
5. I. Rajabov. “Maqomlar masalasiga doir” . T.: 1963 y 269-bet

Raxmatullayeva Gulnozaxon Mavlanjonovnana

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJTIMOY-MA'NAVY ODOBNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi misolida)	78	82
--	----	----

Karimov Xabibullo Shavkatovich

SPORTCHILARNING JISMONIY VA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINING VOLEYBOL NATIJALARIGA TA'SIRI	83	90
--	----	----

Sobirova Jumagul Erkinjon qizi

FASILITATORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM MUHITINING AHAMIYATI	91	99
---	----	----

IJTIMOY-GUMANITAR FANLAR

Bazarov Mirzohid Mirzabahromovich

O'ZBEKISTON MUSIQA MADANIYATI VA SAN'ATINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	100	106
---	-----	-----

Odilov Komiljon Furqatjon o'g'li

OILA, TA'LIM MUASSASALARI VA MAHALLA HAMKORLIGIDA YOSHLARNI OMMAVIY MADANIYAT TAHDIDLARIDAN ASRASH MASALALARI	107	115
---	-----	-----

Adusamatov Ozodbek Olimjon o'g'li

YOSHLARDA MA'NAVY IMMUNITET VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI	116	121
--	-----	-----

G'apurova Lola Xamidulla qizi

O'QUVCHILARGA MUSIQYIY CHOLG'ULARNI TANISHTIRISH VA IJRO MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH	122	128
--	-----	-----

ANIY VA TABIIY FANLAR

Do'monov Bahrom Muhtarovich

KIMYO FANINI LOYIHALASHTIRISH TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	129	132
--	-----	-----

Burxonova Munajatkhon Maxamboyevna, Sirojiddin Behzod Arabdjonovich

GENETIKA MASALALARI YECHISH ASOSIDA TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI	133	139
--	-----	-----

Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboyevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi

TEXNOLOGIYA TA'LIM DARSLARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	140	142
--	-----	-----

Rahmonov Mirzoxid Shavkatovich, Umarov Sirojiddin Sayfiddin o'g'li

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH	143	150
---	-----	-----

Isayev Bohodirjon Makhamatshoyevich

SANOAT KORXONALARINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA KIBERHUJURLARNI AVTOMATIK ANIQLASH VA MONITORING QILISH TIZIMINI TADQIQ ETISH VA ISHLAB CHIQUISH	151	154
--	-----	-----

